

## MUSIQA TA'LIMINING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNI VA QASHQAR RUBOBI BILAN ISHLASH TEXNIKASI

Sharipov San'atjon Valijonovich

Toshkent amaliy fanlar universiteti

sanatjonsharipov445@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14415009>

**Annotatsiya:** O'zbek xalqining musiqa madaniyati uzoq asrlik tarixga ega, ko'pgina sozanda va xonandalar avlodining faoliyatida qaror topgan xalq hamda og'zaki an'anadagi ustozona musiqa san'ati bu haqda guvohlik beradi. Moddiy madaniyat yodgorliklarining tasdiqlashicha, bugungi O'zbekiston hududida Markaziy Osiyo xalqlarining ajdodlari yaratgan qadimgi sivilizatsiya mavjud bo'lgan. Arxeologiya ma'lumotlari, tasviriy san'at asarlari (sharq poetik ijodiyoti asarlarida tasvirlangan miniaturalar), sharqshunoslarning yangi tadqiqotlari, o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan olimlarning musiqiy risolalari tarjimasi o'zbek xalqi musiqa madaniyati taraqqiyotining tarixiy jarayonini tasavvur qilishimizga yordam beradi. O'zbek xalqining ma'naviy va milliy boyligi hisoblangan tanbur, dutor, nay, chang, g'ijjak, qonun, ud, rubob kabi milliy cholg'ulari mavjud. Xususan, o'zbek ijrochilik san'atida ko'plab cholg'ular qatorida qashqar rubobi alohida o'rin tutadi. Bu cholg'u o'zining jarangdorligi va juda qulayligi bilan xalqimizning sevimli cholg'ularidan biriga aylangani ushbu maqolada ilmiy isbotlangan.

**Kalit so'zlar:** musiqa, madaniy hayot, musiqiy savod, qashqar rubobi, Muhammadjon Mirzayev, menzura, latun, kosali rubob.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Musiqa tarbiyasi, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri, maksimal darajada idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va tafakkurini yuksaltiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy-g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir. Qomusiy olim Abu Nosir al-Farobiy "Bu fan tanning sog'lig'i uchun foydalidir", - degan bo'lsa, Shayx Sa'diy esa: "Musiqa odam ruhining yo'ldoshidir", - deb ta'kidlagan edi. Musiqa insonga tez ta'sir etuvchi emotsional hissiyotni faol rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Musiqa inson ruhiyatining ajralmas qismidir. Musiqadan ruhiy ozuqa olish uchun inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go'zallikni his eta oladigan, o'z kasbiga, Ona vataniga mehr qo'ygan bo'lishi kerak. Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh maqsadidir. Bu oliy maqsadni amalga oshirish uchun tadqiqotchilar tomonidan musiqa o'qituvchisining oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

1. O'quvchilarda musiqa san'atiga bo'lgan qiziqish va mehr-muhabbatni oshirish.
2. Musiqiy faoliyat jarayonida badiiy ijodkorlik va his-tuyg'ularni rivojlantirish.
3. Asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash.
4. Musiqa darslarida kasb-hunar va mehnatga nisbatan o'quvchilarda ishtiyoq uyg'otish.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish o'qituvchining professional va axloqiy qiyofasiga bog'liq. Har qanday san'atkor ham maktabda musiqa darslarini olib borolmaydi. Buning uchun musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan yuksak madaniyatli keng dunyoqarashli ma'naviy yetuk, biror bir cholg'u asbobini mohirlik bilan ijro eta oladigan shaxs bo'lmog'i lozim. U pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, etika va estetika nazariyasi, musiqa nazariyasining amaliy sohalaridan, musiqa o'qitish metodikasi fanlaridan chuqur bilimga ega bo'lmog'i talab qilinadi. Musiqa o'qituvchisi musiqa san'atining nazariy va amaliy sohalaridan yetarli darajada bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lishi lozim, ya'ni musiqa o'qituvchisi ham cholg'uchi, ham xonanda. Xor direjyori, jo'rnovozchi, musiqa nazariyotchisi va amaliyotchisi sifatida ish ko'rmog'i lozim. Musiqa o'qituvchisining ijodkorligi shundaki, u bir soatlik darsga senariy muallifi, uning ijrochisi va rejissyori sifatida ish tutadi. Shu bois musiqa darsi san'at darsi deyiladi. Maktab hayotida musiqa o'qituvchisining faoliyat miqyosi kengdir.

Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi turlarini tashkil etish va boshqarish, maktabda musiqa tarbiyasining ommaviy shakllarini (san'atkorlar bilan uchrashuvlar, ma'ruza-konsertlar, shoirlar bilan uchrashuvlar, "Navro'z" bayramlari, "Alifbe" bayramlari, "O'zbekiston – vatanim manim", "Ilhom chashmalari" ko'rik-tanlovlari, bayramlarni) uyushtirish va tashkil etish musiqa o'qituvchisining zimmasiga yuklatiladi va vazifasiga kiradi. Shu bilan birga, maktabdan tashqari musiqa tarbiyasi markazlari (bolalar musiqa maktablari, bolalar teatri, o'quvchilar saroylari) bilan aloqada bo'lib, iqtidorli o'quvchilarni ularga jalb etish va faoliyatini maktab hayotida qo'llash ham musiqa o'qituvchisining zimmasidagi vazifasidan biridir.

Ana shu vazifalardan kelib chiqib, qashqar rubobining o'qitish metodikasi bilan yaqindan tanishtiramiz.

### **Qashqar rubobining O'zbekistonga kirib kelishi**

Xalq musiqasi asrlar davomida muayyan bir shaklga kelibgina qolmay yangi-yangi ohanglarga suyanadi va uni o'zgartirib boradi. Hozirgi madaniyatimizning muhim omillaridan biri musiqa merosini o'zlashtirish, bastakorlarning xalq cholg'ulari uchun yaratgan zamonaviy asarlarini va ularning rivojlanish istiqbolini chuqur tushunishdan iborat.

Zamonaviy ijrochidan musiqani nozik tushunish, ijro etilayotgan asarning mazmuni va rang-barangligini aniq hamda yuqori badiiy saviyada yetkazish, bastakor g'oyasiga tayanib, mahorat bilan ijro etish talab etiladi. Bularning barchasi mukammal darajada ijrochilik nazariyasini va mahoratini texnik jihatdan doimo takomillashtirib borish bilan bog'liqdir. Zamonaviy ijrochilik madaniyatini yangi darajaga ko'tarish, xalq musiqasi va qardosh musiqa namunalari hisobiga o'z repertuarlarini doimo kengaytirib borishni va jahon musiqa madaniyatining nodir namunalari o'zlashtirishni taqozo etadi.

XX asr o'zbek ijrochilik san'atining zabardast namoyondasi, betakror rubobchi, o'z ijodiy uslubiga ega sozanda, bastakor O'zbekiston xalq artisti Muhammadjon Mirzayev 1936-yil Farg'ona vodiysining Shohimardon qishlog'iga borganda uyg'ur dorbozlari tomonidan dor o'yini ko'rsatilyotgamiga guvoh bo'ladi. O'shanda dorbozlarning o'rtasida turib tomoshani olib boradigan qashqarlik Mamad Oxun ismli "o'rtakash" kichkina kosali rubobda odam chaqirib jamoani yig'ib turganiga ko'zi tushadi.

Muhammadjon Mirzayev Mamad Oxundan o'sha rubobni sotib oladi. Toshkentga qaytgach, Usta Usmon Zufarov bilan birga bu cholg'uni qayta takomillashtiradilar (*Mirzayevni*

*ko'rsatmasiga binoan*). Usta Usmon Zufarovning ustaxonasida yangi ko'rinisdagi yoqimli ovozi, zamonaviy rubob yaratish ustida ko'p ish olib borishadi. Natijada ijrochining talabiga ko'ra rubobning **menzurasi** uzaytiriladi, dastasi esa **latun** qalamchalar bilan pardalar teng bo'linib, kosaxonasini kattaroq qilib, Muhammadjon Mirzayevning qaddi-bastiga mos qilib, torlarini esa fortepianoni kvarta intervali bo'yicha *Lya-Mi-Si* soziga sozlab, hozirgi ko'rinisdagi rubobni yaratadilar. O'sha rubobni pardalar soni kam edi.

Muhammadjon Mirzayev keyinchalik rubobdagi kamchiliklarni to'ldirgan. Ya'ni rubob pardalarini 14 tadan 24 tagacha oralig'ini oshirib, rubob torlarini ichak va po'lat simli torlarga almashtirdi, natijada rubob ansamblga moslashtiriladi. Rubobning ushbu nusxasi hozir ham Muhammadjon Mirzayevning uyida saqlanmoqda.

XX asrning 40-50 yillaridan boshlab, Toshkent davlat konservatoriyasi qoshida cholg'ularni o'rganish va takomillashtirish maqsadida professor A. I. Petrosyans boshchiligida eksperimental laboratoriya tashkil qilinib, unda xalq cholg'ulari qayta ishlana boshlangan. Jumladan, qashqar rubobi ham qayta ishlanib, temperatsiyali tovush qatorga asoslangan turlari yaratilgan.

Natijada qashqar rubobida shashmaqom asarlari va o'zbek xalq musiqasi bilan birga ko'plab boshqa xalqlarning kuylari va kompozitorlar ijodiga mansub bo'lgan murakkab, yirik shakldagi asarlarni ijro etish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Takomillashtirish natijasida yaratilgan ruboblarni keng miqyosida ishlab chiqishni yo'lga qo'yish maqsadida, bu ruboblarning kosasi yog'och qovurg'alarni biriktirib ishlana boshlandi. Bugungi kunda rubobning qovurg'ali hamda an'anaviy o'yma qashqar rubob turlari amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

### **Qashqar rubobida ijro etish, qo'llar va gavdaning holati**

Rubob kosasini ushlab turishda 3 asosiy tayanch vazifasini bajaradi.



#### **Bu tayanchlar:**

- Gavdaning ko'krak qismi.
- Kosani ilmoqlar tomonidan tutib turuvchi bilakning yuqori qismi.



– O'ng qo'lning rubob kosasini tagidan tutib turuvchi bilak qismi.

Bu 3 nuqta juda muhimdir. Ular rubob kosasini pastga tushib ketmasligini va aksincha tepaga yoki yonga chaqib ketmasligini ta'minlaydi.


**O'ng qo'lning tirsak qismi** rubob kosasini tagidan ushlab turadi. O'ng qo'lni rubob kosasining chetiga shunday qo'yish kerakki, mizrob rubob harragidan 7-8 sm uzoqlikda joylashgan bo'lishi shart. Bunday holat aynan o'ng qo'lning pastga yuqoriga erkin harakatlanishini va sifatli tovush qilishni ta'minlaydi.

### **Qashqar rubobida ijrochilik ta'limi**

Qashqar rubobi ijrochilik amaliyotida juda keng qo'llanadigan cholg'u hisoblanadi. Qashqar rubob o'tirib va turib chalinadigan sozlardan bo'lib, orkestr, ansambl ijrochiligida va yakkaxon ijrochilikda juda ko'p qo'llaniladi. Cholg'uni yaxshi o'zlashtirish uchun ijro paytida uni to'g'ri tutish muhimdir. Ijro paytida ijrochining tashqi ko'rinishi chiroyli bo'lishi, gavdaning, oyoq-qo'llarining erkin tutishi katta ahamiyatga ega.



Ijrochilik holatiga dastlabki mashg'ulotlardan oq katta e'tibor berish maqsadga muvofiq. Bunda o'ng va chap qo'llarning holati, ya'ni cholg'uni to'g'ri ushlab, dastani to'g'ri tutish, mizrobni to'g'ri ushlab kabi elementlarning bir-biri bilan o'zaro munosabatda bo'lishini ta'minlash eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Cholg'uni tutish holatidagi mavjud kamchiliklar ko'pincha ijrochilik mahoratining past darajada bo'lishiga, hatto gavda tuzilishining noto'g'ri shakllanib qolishiga sabab bo'ladi.





Ijrochilik holati bir yoki bir necha darsda o'zlashtiriladigan jarayon emas. Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi o'quvchi yoki talaba bilan doimiy ravishda ijrochilik holati ustida ishlash davomida uni noto'g'ri bo'lib qolmasligi uchun nazorat qilib borishi kerak. Chunki ijrochining holati avval yaxshi bo'lib, keyinroq buzilishi ham uchrab turadi. Amaliyotda musiqa maktablarida o'qitishning dastlabki bosqichlarida asosan **Plastmassa mizrobdan** foydalaniladi. Uning shaklan kattaroq va yumshoqligi Yangi o'rganuvchiga qulayroq. **Ebonitlar** pishiqligi va sifatli tovush hosil qilishi bilan plastmassa mizrobdan afzal hisoblanadi.

Mizrobnı ushlash uchun **o'ng qo'l barmoqlari yarim aylana holga** keltiriladi. Bunda barmoqlarning so'nggi bo'g'inlari bir tekisda bukilib, ko'rsatkich barmoq tirnoqqa yaqinroq bukilgan holda ushlanadi.

Aks holda mizrobnı sezish va boshqarish imkoniyati yo'qoladi. Ayniqsa, maktab o'quvchilarida shu xato ko'p uchrab turadi. Mazkur kamchilikni bartaraf qilishda quyidagi uslubni tavsiya qilamiz: o'quvchi o'ng qo'lining to'rt barmog'i bo'g'inlari bilan erkin ushlay oladigan biror narsani ushlatib, undan keyin mizrobnı ko'rsatkich barmoqning oxirgi bo'g'iniga bosh barmoq bo'g'inlari bukilgan holda ushlanadi va nazorat ostida mashq qilinadi.

#### **Chap qo'l barmoqlari harakatlari**



Rubob dastasi **bosh va ko'rsatkich barmoqlar** o'rtasida bo'lib bunda dasta siqib ushlanmasligi, **bosh barmoq** esa ikkinchi va uchinchi barmoqlar o'rtasida turishi kerak. Bunda kaftning dastaga yopishib turmasligini doim nazorat qilish lozim.

Yuqoridagi misolimizda va shunga o'xshash asarlar ijrosida chap qo'l barmoqlarining aniq harakati va rubobning har bir pardasini juda yaxshi sezishi talab etiladi. Buning uchun har bir notani barmoqlar uchi bilan bosishi tanlanishi juda muhim hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlanganimizdek, o'ng va chap qo'llar bir-biri bilan uzviy bog'liq va ular qashqar rubob ijrochilik holatini tashkil qiladi. Ijrochilik holatining buzilib qolmasligini esa doim nazorat qilib turish kerak. Agar o'quvchiga ko'proq vazifa berib, ularni vaqtida bajarishga o'rgatib, vazifa va topshiriqlarni murakkablashtirib borilsa, ular uchun qiyinchiliklarni yengish va ijro malakalarini tez o'zlashtirish imkoniyat darajasidagi talablarga aylanadi muntazam o'z ustida ishlab borish ko'nikmalarini shakllantiradi.

### References:

1. Musiqa o'qitish metodikasi. o'quv qo'llanma / J. Yarashev, D. Murotova. -Buxoro: Durdona, 2021.-72 b.
2. G.Sharipova. "Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitish metodikasi". Ma'ruza matni. Toshkent: TDPU, 2001
3. Ibrohimov O. O'zbek xalq musiqa ijodi. 1-qism (metodik tavsiyalar) – Toshkent: O'zR XT o'quv-metodik markazi, 1994, 62-b.
4. Музыкальная эстетика стран Востока. Общ. Ред. В.П. Шестакова. – Л.: Музыка, 1967.
5. Yunusov R.Yu. O'zbek xalq musiqa ijodi. 2-qism. (O'quv-uslubiy qo'llanma) – T.: Ziyochashma, 2000, 56-b.
6. Karomatov F. O'zbek xalqi musiqa merosi. Yigirmanchi asrda. II tom. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1985, 207-b